



O'ZBEKISTONDA DAVLAT MOLİYAVIY NAZORATI TIZIMINING AMALDAGI HOLATI

Shodiyev Yashnarbek Baxriddin o'g'li

O'zbekiston respublikasi Bank moliya akademiyasi

Xalqaro bank ishi fakulteti

Davlat moliyaviy nazorati va auditi(MSc)

mutaxassisligi talabasi

E-mail: yashnarbek300@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisda O'zbekistonda davlat moliyaviy nazorati tizimining amaldagi holati, institutsional tuzilishi va rivojlanish tendensiyalari tahlil qilinadi. Unda davlat auditi tizimining takomillashuvi, Hisob palatasining funksional salohiyati, ichki audit mexanizmlarining rivojlanishi, raqamlashtirish va masofaviy nazorat vositalarining joriy etilishi yoritilgan. 2024–2025-yillardagi budjet ko'rsatkichlari, aniqlangan moliyaviy kamchiliklar, budjet xarajatlarini maqbullashtirish natijalari hamda tashqi qarz loyihalarining auditi tahliliy baholanadi. PEFA baholashlari asosida davlat moliyasini boshqarish tizimining kuchli va zaif jihatlari aniqlanib, moliyaviy nazoratning preventiv salohiyatini oshirish, riskga asoslangan auditni rivojlantirish va davlat xarajatlari natijadorligini kuchaytirish bo'yicha ilmiy-amaliy xulosalar shakllantiriladi.

Kalit so'zlar: Davlat moliyaviy nazorati, davlat auditi, Hisob palatasi, ichki audit, budjet nazorati, raqamli audit, moliyaviy boshqaruv, fiskal intizom.

KIRISH: Bugungi sharoitda davlat moliyaviy nazoratining samaradorligi davlat moliyasini boshqarish sifatining muhim ko'rsatkichlaridan biriga aylanmoqda. Iqtisodiy resurslarning cheklanganligi, davlat xarajatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsadlari bilan bevosita bog'liqligi hamda fiskal barqarorlikka qo'yilayotgan talablarning kuchayishi moliyaviy nazoratni boshqaruvning texnik funksiyasidan strategik institut darajasiga olib chiqmoqda. Davlat mablag'laridan foydalanishda tejamkorlik, shaffoflik, natijadorlik va



hisobdorlikni ta'minlash masalalari davlat siyosatining uzoq muddatli samaradorligi bilan uzviy bog'liq. Shu sababli O'zbekistonda davlat moliyaviy nazorati tizimining amaldagi holatini ilmiy jihatdan tahlil qilish uning institutsional imkoniyatlari, mavjud cheklovlari va rivojlanish tendensiyalarini aniqlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bu masalaning dolzarbligi moliyaviy boshqaruvda raqamli texnologiyalar, riskga asoslangan yondashuv va xalqaro audit standartlarining tobora keng qo'llanayotgani bilan belgilanadi.

ASOSIY QISM: Davlat moliyaviy nazoratining hozirgi holatini baholashda uning faqat budget mablag'laridan qonuniy foydalanishni tekshiruvchi mexanizm emas, balki moliyaviy intizom, davlat boshqaruvida hisobdorlik va budget resurslaridan foydalanish samaradorligini ta'minlovchi institutsional tizim sifatidagi evolyutsiyasini hisobga olish zarur. O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarning kuchayishi, davlat budjeti xarajatlarining kengayishi, ijtimoiy sohalarga ajratilayotgan mablag'larning ko'payishi va tashqi qarz hisobidan moliyalashtirilayotgan loyihalar hajmining ortishi moliyaviy nazorat oldiga yangi vazifalarni qo'ymoqda. Shu sababli nazorat tizimida "ijrodan keyingi taftish" yondashuvidan xavf-xatarga asoslangan, raqamli, preventiv va natijadorlikni o'lchashga yo'naltirilgan audit modeliga o'tish jarayoni kuzatilmoqda.

O'zbekistonda davlat moliyaviy nazoratining normativ-huquqiy poydevorini Budget kodeksining 26-bobi [1], "O'zbekiston Respublikasining Hisob palatasi to'g'risida"gi Qonun [2], Prezidentning 2021-yil 27-avgustdagi PF-6300-son [3] hamda 2024-yil 10-iyuldagi PF-100-son [4] farmonlari tashkil etadi. Bu huquqiy baza davlat moliyasini nazorat qilishda turli institutlarning vakolatlarini belgilab beradi. Budget kodeksiga muvofiq, davlat moliyaviy nazoratini amalga oshiruvchi asosiy tuzilmalar qatoriga Hisob palatasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda uning vakolatli tuzilmalari, Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining



Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi kiradi. Davlat daromadlarini shakllantirish bilan bog'liq nazorat funksiyalari esa soliq va bojxona organlariga ham yuklatilgan. Bunday institutsional taqsimot moliyaviy nazoratni yagona tashkilot vakolatidan chiqarib, ko'p subyektli tizimga aylantirgan.

Hisob palatasining tashqi audit va moliyaviy nazoratning oliy organi sifatidagi roli so'nggi yillarda kuchaytirildi. 2021-yildagi farmon asosida uning xodimlari soni 70 tadan 110 tagacha oshirildi. 2021-yildan moliyaviy, muvofiqlik va samaradorlik auditlarining ISSAI — INTOSAI xalqaro standartlari asosida joriy etilishi davlat auditining metodologik bazasini xalqaro amaliyotga yaqinlashtirdi. 2024-yil 10-iyuldagi PF-100-son farmon esa ichki auditni kuchaytirish, “Davlat audit” dasturiy kompleksini yagona platformaga aylantirish, konsolidatsiyalashgan budjet ijrosini tashqi auditdan o'tkazish va masofaviy nazorat imkoniyatlarini kengaytirishga qaratildi. 2025-yil 8-apreldagi Vazirlar Mahkamasining 210-son qarori bilan “2025–2030-yillarda davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasi” tasdiqlandi [5].

Amaldagi tizimni shartli ravishda uch darajaga ajratish mumkin. Birinchi darajada vazirlik va idoralardagi ichki nazorat hamda ichki audit xizmatlari joylashadi; ular oldindan va joriy nazoratni amalga oshiradi. Ikkinchi darajada vazirlik inspeksiyalari va Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi turib, budjet intizomini tezkor ta'minlashga xizmat qiladi. Uchinchi darajada esa mustaqil tashqi va strategik auditni amalga oshiruvchi Hisob palatasi mavjud. Bu arxitektura nazariy jihatdan “uch himoya chizig'i” modeliga yaqinlashadi. Biroq amaliyotda vakolatlarning qisman kesishishi va axborot tizimlarining to'liq integratsiyalanmaganligi ushbu modelning samaradorligini cheklovchi omil bo'lib qolmoqda.

Davlat moliyaviy nazorati tizimidagi o'zgarish uning funksional mazmunida yuz bermoqda. 2019–2023-yillardagi PEFA baholashlari tashqi audit qamrovi yuqori bo'lganini, biroq nazoratning asosiy urg'usi ko'proq



qonuniylilikni tekshirishga qaratilganini ko'rsatgan. 2024–2025-yillarda esa audit falsafasida sifat jihatidan yangi bosqich shakllandi: “mablag‘ qayerga sarflandi?” degan savol bilan bir qatorda “ajratilgan mablag‘ qanday ijtimoiy-iqtisodiy natija berdi?” degan savol markazga chiqdi. Bu jarayon auditning turlarini differensiallashtirishda yaqqol ko‘rinadi. Moliyaviy audit moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligini, muvofiqlik auditi qonunchilik va dasturlarga rioya qilinishini, samaradorlik auditi tejamkorlik, unumdorlik va natijadorlikni, strategik audit esa milliy maqsadlarga erishishga to‘sqinlik qiluvchi tizimli xavflarni baholashni nazarda tutadi.

Nazoratning vaqt jihatidan ham o‘zgarishi muhim ahamiyatga ega. An’anaviy modelda audit asosan budget mablag‘lari sarflanganidan keyin amalga oshirilgan bo‘lsa, yangi yondashuv rejalashtirish bosqichiga ham kirib bormoqda. Mahalliy budget loyihalarining ekspertizasi, davlat dasturlarining moliyaviy ta‘minlanganligini oldindan baholash shundan dalolat beradi. Nazorat repressiv yoki korrupsion holatlarni aniqlash vositasidan preventiv boshqaruv instrumentiga aylanmoqda.

Davlat moliyaviy nazoratining ahamiyati nazorat qilinayotgan moliyaviy resurslarning ko‘lami bilan belgilanadi. 2024-yilda davlat budgeti daromadlari taxminan 274,4 trln so‘mni tashkil etdi [6]. 2025-yilda esa Hisob palatasining tashqi audit xulosasiga ko‘ra, davlat budgeti daromadlari 359,8 trln so‘mga, ya‘ni YAIMga nisbatan 19,4 foizga yetgan [7] va 2024-yilga nisbatan 131,1 foizni tashkil qilgan. Budget xarajatlari 383,9 trln so‘mni tashkil etib [8], YAIMga nisbatan 20,8 foizga teng bo‘lgan hamda o‘shish sur‘ati 123,5 foizni tashkil etgan.

Budget xarajatlarining tarkibida ijtimoiy yo‘nalish alohida o‘rin tutadi. 2025-yilda ijtimoiy xarajatlar 180,4 trln so‘m, ya‘ni jami budget xarajatlarining 47 foizini tashkil qilgan. Shundan ta‘lim tizimiga 84,2 trln so‘m, sog‘liqni saqlashga esa 43,3 trln so‘m yo‘naltirilgan [9]. 2026-yil 1-yanvar holatiga budget taqchilligi taxminan 24,15 trln so‘mni tashkil etgan. Soliq qarzining 53,3 trln



so'mga yetishi va yil boshiga nisbatan 18 foizga oshishi [10] daromadlarni boshqarish hamda fiskal intizom masalasining dolzarbligini ko'rsatadi.

Davlat qarzi ham moliyaviy nazoratning strategik yo'nalishlarini kengaytirmoqda. 2025-yil boshida davlat qarzi 40,2 mlrd AQSh dollari, ya'ni YAIMga nisbatan taxminan 35 foizni tashkil etgan [11]. Shu sababli tashqi qarz hisobidan amalga oshirilayotgan loyihalarning nafaqat qonuniyligi, balki iqtisodiy samaradorligi, qaytaruvchanligi va ijtimoiy natijadorligini baholash tobora zarur bo'lib bormoqda.

Hisob palatasining 2024-yildagi faoliyati bo'yicha Prezident taqdimotida 2025-yil 20-yanvar holatiga ko'ra, yangi manbalar hisobidan 3,7 trln so'm qo'shimcha tushum ta'minlangani, 9,2 trln so'mlik samarasiz xarajatlar maqbullashtirilgani va 2,3 trln so'mlik moliyaviy kamchiliklarning oldi olingani qayd etilgan. Davlat xaridlarida esa 4,5 trln so'mlik kamchiliklar bartaraf etilgan [12]. "Masofaviy audit" tizimiga 34 ta vazirlik va idora ulangan. 2025-yil yakunlari tizimning moliyaviy ta'siri yanada kengayganini ko'rsatadi. Hisob palatasi tomonidan 8,1 trln so'm budget xarajatlari maqbullashtirilgan, 1,1 trln so'mlik noqonuniy xarajatlarning oldi olingan, 7,6 trln so'mlik qo'shimcha daromad manbalari aniqlangan. Tashqi qarz loyihalarida 5,7 trln so'm iqtisod imkoniyati belgilangan [13].

Nazorat faoliyatining ko'lami ham oshgan: 93 ta audit va o'rganish, 62 ta tematik tahlil amalga oshirilgan. Natijada 7,7 trln so'mlik moliyaviy xato va kamchiliklar aniqlanib, 2 trln so'mdan ortiq mablag' budgetga qaytarilgan. Boshqa rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yilda jami 155 ta nazorat tadbiri o'tkazilgan bo'lib, bu 2024-yilga nisbatan qariyb 20 foizga ko'p [14]. Bu ko'rsatkichlar davlat auditi faoliyatining faqat huquqiy emas, balki iqtisodiy samaradorlik funksiyasini ham kuchaytirayotganini ko'rsatadi. Biroq aniqlangan kamchiliklarning katta hajmi boshqa xulosani ham keltirib chiqaradi: tashqi auditning aniqlash va tuzatish salohiyati oshayotgan bo'lsa-da, kamchiliklarning



yuzaga kelishiga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan ichki nazorat mexanizmlari hali yetarlicha kuchli emas.

“Masofaviy audit” avtomatlashtirilgan axborot tizimi va “Davlat auditi” dasturiy kompleksi katta hajmdagi moliyaviy ma'lumotlarni avtomatik tahlil qilish, xavf indikatorlarini aniqlash va nazorat tadbirlarini risk darajasiga ko'ra tanlash imkonini bermoqda. 2025-yil oxiriga kelib “Masofaviy audit” tizimi 75 ta idoraning 259 ta ma'lumotlar bazasi bilan integratsiya qilingan. Davlat xaridlarida sun'iy intellekt modullaridan foydalanish orqali 83,3 mlrd so'mlik manfaatlar to'qnashuvi holatlari bartaraf etilgan. 2025-yil rejasida tizimga 110 ta idorani ulash va 480 trln so'mlik budget xarajatlarini to'liq monitoring qilish belgilangan edi [15]. Raqamlashtirishning nazariy jihatdan asosiy afzalligi nazoratning tanlab tekshirishdan ma'lumotlarga asoslangan risk-menejmentga o'tishidir. Biroq raqamli platformalarning mavjudligi o'z-o'zidan nazorat sifatini kafolatlamaydi. Ma'lumotlarning sifati, o'zaro mosligi, yangilanish tezligi, algoritmik risk indikatorlarining aniqligi va inson omilining nazorat qilinishi raqamli audit samaradorligini belgilab beradi.

2024-yilgi PEFA baholashi O'zbekiston davlat moliyasini boshqarish tizimida sezilarli ijobiy o'zgarishlar yuz berganini ko'rsatadi. 2016-yil metodologiyasi asosida o'tkazilgan baholashni 2019-yilgi natijalar bilan taqqoslaganda, 94 ta o'lchovdan 37 tasida yaxshilanish, 8 tasida yomonlashuv qayd etilgan; ayrim holatlarda salbiy baho ma'lumotlarning yetarli emasligi bilan bog'liq bo'lgan. Budget ishonchliligi nisbatan yuqori darajada shakllangan. 2021–2023-yillarda agregat xarajatlar ijrosi tasdiqlangan rejaning 95–105 foizi oralig'ida bo'lib, ushbu ko'rsatkich A baho bilan baholangan [16]. Ichki audit standartlarining xalqaro talablarga yaqinlashtirilishi, Hisob palatasining ISSAI asosidagi standartlarni qabul qilishi va yillik audit dasturlarining xavf tahliliga asoslanishi institutsional salohiyatning o'sishini ko'rsatadi. PEFA natijalari tizimning cheklovlarini ham ochib beradi. Xizmat ko'rsatish natijadorligi



to'g'risidagi axborot, ko'p yillik budjetlashtirish, davlat aktivlarini hisobga olish va parlament nazoratining chuqurligi hali xalqaro ilg'or amaliyot darajasiga to'liq yetmagan. Shuning uchun O'zbekiston modeli "nazorat qilish" funksiyasida sezilarli rivojlangan bo'lsa-da, "natijani o'lchash va natija uchun hisobdorlikni ta'minlash" bosqichida hali institutsional konsolidatsiyaga muhtoj.

Birinchi muammo bu soliq qarzi va budjetdan tashqari moliyaviy oqimlarning nazorat qilinishidir. 2025-yil auditida 112,2 mlrd so'mlik soliqsiz to'lovlarning respublika budjetiga ajratilmagani aniqlangan. Soliq qarzining 53,3 trln so'mga yetishi fiskal nazoratning faqat xarajatlar emas, balki daromadlar tomonida ham preventiv mexanizmlarni kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Ikkinchi muammo tashqi qarz loyihalarining samaradorligi hisoblanadi. Bunday loyihalarda 5,7 trln so'm iqtisod imkoniyatining aniqlanishi bir tomondan auditning real iqtisodiy samara berayotganini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan loyiha-oldi ekspertizasi va xalqaro standartlarga asoslangan samaradorlik auditining ayrim holatlarda kech joriy etilganidan dalolat beradi. Nazoratning asosiy qismi mablag' sarflangandan keyin emas, loyiha shakllantirilayotgan bosqichdayoq amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

Uchinchi muammo ichki auditning institutsional mustaqilligi va kadrlar salohiyatidir. Ichki audit xizmatlari sonining ko'payishi ijobiy holat bo'lsa-da, ularning rahbariyatdan funksional mustaqilligi, auditorlarning malakasi, metodologik bir xilligi hamda Hisob palatasi bilan audit rejalari bo'yicha muvofiqlashtirish darajasi turli tashkilotlarda bir xil emas.

To'rtinchi muammo bu ijro intizomining shaffofligi. "Davlat auditi" kompleksiga kiritilmagan yoki kechiktirib kiritilgan tadbirlar uchun ma'muriy javobgarlik joriy etilgani nazoratning institutsional majburiyligini oshiradi. Biroq talablarning bajarilishi va ijro intizomi bo'yicha statistik ma'lumotlarning





yetarlicha oshkora bo'lmisligi hisobdorlik mexanizmining to'liq ishlashiga to'sqinlik qilishi mumkin.

Beshinchi muammo davlat xaridlari sohasidagi tizimli xavflardir. 2025-yilda qariyb 2 millionta davlat xarid shartnomasi mavjud bo'lgan sharoitda sun'iy intellekt yordamida 83 mlrd so'mlik buzilishlarning aniqlanishi raqamli nazorat imkoniyatlari kengayayotganini ko'rsatadi. Biroq bu summa xaridlarning umumiy ko'lami bilan solishtirilganda, aniqlangan holatlar muammoning to'liq hajmini emas, balki uning faqat ko'rinib turgan qismini ifodalashi ehtimolini ham ko'rsatadi.

XULOSA: O'zbekistonda davlat moliyaviy nazorati tizimining amaldagi holati uning an'anaviy tekshiruv mexanizmidan zamonaviy davlat auditi va moliyaviy boshqaruvning strategik instrumentiga aylanish jarayonida ekanligini ko'rsatadi. So'nggi islohotlar institutsional vakolatlarni aniqlashtirish, auditning xalqaro standartlarini joriy etish, raqamli nazorat vositalarini kengaytirish hamda budjet mablag'laridan foydalanish natijadorligini baholash imkoniyatlarini kuchaytirdi. Biroq tizimning real samaradorligini faqat aniqlangan yoki budjetga qaytarilgan mablag'lar hajmi bilan baholash yetarli emas. Asosiy mezon moliyaviy qonunbuzarliklarning kelib chiqishini oldindan cheklash, budjet qarorlarining sifatini oshirish va davlat xarajatlarining ijtimoiy-iqtisodiy natijasini o'lchashdan iborat bo'lishi lozim. Shu sababli kelgusida ichki auditning mustaqilligi, ma'lumotlar integratsiyasi, risklarni prognozlash, natijadorlikka asoslangan budjetlashtirish va parlament nazoratini rivojlantirish ustuvor yo'nalish bo'lishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi. (2013). O'zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi. <https://lex.uz/docs/-2304138>
2. O'zbekiston Respublikasi. (2019). O'zbekiston Respublikasining Hisob palatasi to'g'risida (O'RQ-546-son). <https://lex.uz/docs/-4394324>





3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2021). Davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida (PF-6300-son). <https://lex.uz/docs/-5607471>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2024). Budget mablag'laridan foydalanish ustidan moliyaviy nazoratni kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida (PF-100-son). <https://www.lex.uz/uz/docs/-7015258>
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2025). 2025–2030-yillarda davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida (210-son qaror). <https://lex.uz/uz/docs/-7469803>
6. Gazeta.uz. (2025). O'zbekiston davlat budjeti daromadlarining o'sishi tezlashdi. <https://www.gazeta.uz/oz/2025/06/04/budget-incomes/>
7. O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi. (2026). O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti va Davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarining 2025-yildagi ijrosi to'g'risidagi hisobot tashqi audit va baholashdan o'tkazildi. <https://ach.gov.uz/uz/events-nav/news/detail/6a4227ed3a716b2dfd44e3e9>
8. Kun.uz. (2026). Davlat budjetining 2025 yildagi ijrosi: Defitsit – 39 trln so'mgacha qisqardi. <https://kun.uz/news/2026/03/25/davlat-budjetining-2025-yildagi-ijrosi-defitsit-39-trln-somgacha-qisqardi>
9. Xabar.uz. (2026). 2025-yilda ijtimoiy sohaga 180 trln so'mdan ortiq mablag' yo'naltirilgan. <http://m.xabar.uz/uz/post/2025-yilda-ijtimoiy-sohaga-180-trln-somdan-ortiq-mablag-y>
10. Gazeta.uz. (2025). O'zbekistonning 2026-yil uchun davlat budjeti tasdiqlandi. <https://www.gazeta.uz/oz/2025/12/30/budget-2026/>
11. Xabar.uz. (2025). 2025–2028 yillarda davlat qarzi YaIMga nisbatan 35 foiz atrofida shakllanishi prognoz qilinyapti. <https://www.xabar.uz/uz/iqtisodiyot/2025-2028-yillarda-davlat-qarzi-yaimga-nisbatan>



12. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi. (2026). O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining 2025-yildagi faoliyati to'g'risidagi hisoboti haqida (1990-V-son qaror). <https://lex.uz/docs/-8192970>

13. O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi. (2026). Hisob palatasi 2025 yil yakunlari bo'yicha hisobotini e'lon qildi. <https://ach.gov.uz/uz/events-nav/news/detail/69f43179b9b9e42c59771801>

14. Gazeta.uz. (2025). XMI kreditlari hisobidan amalga oshirilayotgan loyihalar xalqaro standartlar asosida auditdan o'tkazila boshlaydi. <https://www.gazeta.uz/oz/2025/01/20/audit-chamber/>

Daryo.uz. (2025). "Masofaviy audit" axborot tizimiga 110 ta vazirlik va idoraning ma'lumotlar bazasi integratsiya qilinadi. <https://daryo.uz/2025/01/21/masofaviy-audit-axborot-tizimiga-110-ta-vazirlik-va-idoraning-malumotlar-bazasi-integratsiya-qilinadi>

16. Public Expenditure and Financial Accountability. (2024). Uzbekistan 2024. <https://www.pefa.org/node/5298>